

## MAKABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARI ORQALI BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'GATISH BORASIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOT ISHLARI TAHLILI

**Turopova Nigora Xolmurod qizi**

Termiz Davlat Universiteti  
[nturopova@tersu.uz](mailto:nturopova@tersu.uz)

**Ochilov Javohir Xolbozor o'g'li**

Termiz Davlat Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10932124>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada biz maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga, mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatish borasida ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar va ularning tadqiqot ishlarini o'rganamiz va tahlil qilamiz. Ilmiy izlanishlarim natijasida shunga guvoh bo'ldimki maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirib borish va bu mavzudagi ilmiy qarashlarga ko'ra har bir tadqiqotchi o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib yondoshgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, bola, tarbiyachi, ota-ona, nutq, mustaqil fikr, mulohaza, ilmiy tadqiqot, ta'lim tarbiya, rivojlanish, ichki muhit, ilmiy izlanish, nazariya, vosita, muloqot, innovatsiya, nutqiy muloqot, mustaqil izlanuvchi.

**Абстрактный.** В данной статье мы изучаем и анализируем исследователей, проводивших научные исследования, и их исследовательскую работу по обучению детей дошкольного возраста самостоятельному мышлению. В результате своих научных исследований я стал свидетелем того, что каждый исследователь подходил к развитию навыков самостоятельного мышления детей дошкольного возраста и согласно научным взглядам на эту тему, исходя из собственной точки зрения.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, ребенок, воспитатель, родитель, речь, самостоятельное мышление, рассуждение, научное исследование, образование, развитие, внутренняя среда, научное исследование, теория, инструмент, общение, новаторство, речевое общение, самостоятельный искатель.

**Abstract.** In this article, we study and analyze researchers who have conducted scientific research and their research work on teaching preschool children to think independently. As a result of my scientific research, I witnessed that every researcher approached the development of independent thinking skills of preschool children and according to the scientific views on this topic, based on their own point of view.

**Keywords:** Preschool education, child, educator, parent, speech, independent thought, reasoning, scientific research, education, development, internal environment, scientific research, theory, tool, communication, innovation, speech communication, independent seeker.

### KIRISH

Har bir ota-ona farzandining aqlli, baxtli, o'zining mustaqil mulohaza yuritishini, oilada hamjihatlik hukmron bo'lishini, bolalarining tarbiyasida hech qanday muammo va qiyinchiliklar bo'lishini istashmaydi. Buning uchun esa xuddi shunday sog'lom, barkamol, mustaqil fikrlay oladigan yosh avlodni tarbiyalashda avvalo bizga yuksak madaniyatli, tarbiyali, komillikning ma'lum cho'qqilarini zabt etgan, oilada tarbiya muhitini yarata oladigan ota-onalar va shu sifatlarga ega bilimli, kreativ, o'z mustaqil qarashlariga ega pedagoglarga

ehtiyojimiz sezilarlidir. Italiyalik birinchi tibbiyot fanlari doktori, psixolog, pedagog M.Montessorining olib borgan tadqiqotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak yuqorida ota-onalar orzu qilgan ta'lim-tarbiya muhiti oilada ham maktabgacha ta'lim tashkilotida ham tashkil etilgan hisoblanadi.

M.Montessori ishlab chiqqan tizimning asosiy prinsipi – “Menga buni o'zim qilishimga yordam bering” mazmunidan iboratdir. Ushbu jumlaning tub mohiyatiga nazar soladigan bo'lsak, tadqiqotchi bola tarbiyasida bolaning rolini, uning qiziqishlarini va mavjud imkoniyatlarini hamda eng asosiysi bola harakatlarining o'zi tomonidan mustaqil bajarishiga va narsa va hodisalarga mustaqil o'zi yondoshishiga a'lohida urg'u berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki M.Montessori tadqiq etgan ushbu tizim aynan biz hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlaydigan, erkin muloqot qila oladigan mustaqil shaxs sifatida shakllantirishimiz uchun o'z hissasini qo'shadigan tizim hisoblanadi.

### ASOSIY QISM

M.Montessori usuli asnosida bolalarga ta'lim tarbiya berilganda tarbiyachi va ota-onalar markaziy o'rinda emas, balki yordam berib turuvchi, bola uchun uning tadqiqotlar olib borishi uchun qulay sharoit yaratuvchi sifatida bu jarayonda ishtirok etadi. Ushbu tizimga ko'ra, bolalarning rivojlanishini tezlashtirmaslik kerak, lekin bolaning ushbu faoliyatga qiziqishlarini yo'qotmaslik uchun to'g'ri daqiqani o'tkazib yubormaslik ham juda muhimdir. Kattalarning bola faoliyatiga aralashmasligi bolalarda mustaqillikni rivojlantiradi deb hisoblaydi Mariya Montessori.

M. Montessori tizimining asosiy nuqtalari quyidagilardan iborat

- Bola o'zining o'qituvchisi. U narsalarni tanlash va harakat qilishda to'liq erkinlikka ega.
- Bolalar bolalarga o'rgatishadi. Turli yoshdagi bolalar guruhlarga bo'linganligi sababli, katta yoshdagi bolalar boshqalarga g'amxo'rlik qilishni o'rganish bilan birga, balki o'qituvchiga ham aylanadilar, kichiklari esa kattalarga jalb qilinadi.
- Mashg'ulotlar maxsus tayyorlangan muhitlarda o'tkaziladi (xona 5-6 zonaga bo'lingan, ularning har biri maxsus yordamchi vositalar - Montessori materiallari bilan jihozlangan) bo'ladi.
- Bolaga qiziqish juda muhim va u o'zini rivojlantiradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

M.Montessori tizimidan ko'rinib turibdiki bu tizimning ham asosiy maqsadi bolalarni maktabgacha yoshdan mustaqil harakatlanishga, erkin muloqot qilishga, o'z oldida paydo bo'lgan to'siq hamda qiyinchiliklarda to'g'ri yo'l tuta bilishiga o'rgatib borish maqsadlari ko'zda tutilgandir.

Makabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kun davomida faoliyatlar bilan band etish jarayonida bolalarning mustaqil faoliyati ham tashkil etiladi va bu davr mobaynida bolalar o'zlari xohlagan faoliyat bilan shug'ullanishadi. Masalan, rasm chizish, o'yin o'ynash, kitob tomosha qilish, didaktik o'yinlar o'ynash va hokazo. Ammo bu jarayonga tarbiyachi rahbarlik qilib boradi. Tashkilotda bolalarning musaqil faoliyati ertalabki qabul vaqtida, ertalabki va kechki sayrlarda tashkil etiladi.

Bolalarning kun davomidagi mustaqil faoliyati ular uchun dam olish soati hisoblanadi, ammo ish bilan bir vaqtda bolalarning o'zini o'zi tashkil etish bilish qobiliyati o'sishiga, xulq madaniyati, irodaviy sifatlarining tarbiyalanishiga jamoa sifatlarining shakllanishiga yordam beradi. U har xil faoliyatlarda bolalardagi o'ziga xos ijodkorlikning rivojlanishiga keng

imkoniyat yaratadi. Shuning uchun bolalarning musaqil faoliyatiga ham tarbiyachining rahbarlik qilishi taqozo etiladi: Chunki xohlagan ishi bilan shug'ullanishiga imkon yaratish, kerakli materiallar va asbob-uskunalar bilan taminlashda yordam berishda, tarbiyachining maslahati lozim bo'ladi.<sup>1</sup> Yuqorida ta'kidlanganidek maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalarning mustaqil faoliyatlari zahirida ham aynan bolalarning mustaqillik harakatlari, tashabbuskorlik sifatleri hamda faoliyati davomida yuzaga keladigan muommoli vaziyatlardan o'z imkoniyatidan foydalangan holda yechim topishini ko'rishimiz mumkin.

Mazkur ilmiy ish doirasida boshqa tadqiqotchilarning fikr mulohazalari hamda tadqiqot ishlarini o'rganar ekanmiz Q.Husanboyevaning maktabgacha ta'limda bolalarni adabiy ta'lim mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish borasidagi fikr mulohazalari o'rganib chiqildi va mazkur tadqiqot ishi borasidagi qiziqarli va kerakli ma'lumotlarga ega bo'lindi.

“Kishi fikri mustaqilligining belgilaridan biri - tashabbuskorlik insonning o'z oldiga aniq maqsad va vazifalar qo'yishi, ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan usul hamda vositalarni qo'llashida namoyon bo'ladi. Bu faoliyatning pishiqligi vazifalarni tez bajarish, bu jarayonda qo'l keladigan usul va vositalarni tezkorlik bilan izlab topish, ularni farqlashda ko'rinadi. Aqliy faoliyat tanqidiyligi esa mustaqil fikrlovchining voqea-hodisaga munosabati, uning xususiyatlarini ajrata bilishida namoyon bo'ladi» deb takidlaydi Q.Husanboyeva.

Haqiqatdan ham inson fikri mustaqilligi bo'lgandagina o'z oldiga ulkan maqsadlar qo'ya oladi va shu maqsad yo'lida qadam-baqadam odimlashdan to'xtamaydi. O'z maqsadi yo'lidagi qiyinchiliklarni ham fikr mustaqilligi va teranligi tufayligina qiynalmasdan tez va oson yengib keta oladi. Aynan biz ham bugungi kun maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasida ham ana shunday murakkab vaziyatlardan uddaburonlik va o'zining fikr mustaqilligi bilan yo'l topib keta oladigan shaxslarni tarbiyalash oliy maqsadimizdir. Insonda tafakkur faqatgina ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantirilmaydi, faqatgina ta'lim-tarbiya institutlarida fikrlashga o'rgatilmaydi. U har qaysi ruhan sog'lom bo'lgan insonga hos bo'lgan aqliy-jismoniy hosila hisoblanadi. Bu hosila har bir kishida o'ziga xos tarzda o'z intellektual imkoniyatlari darajasida mavjud bo'ladi. Ma'lum bir davrda olib borilgan ta'lim-tarbiya jarayonlarida tafakkurning shakllari, ma'lum sifatleri, darajalari, ma'lum yo'nalishlarni belgilab olish, sayqallash va yanada rivojlantirib borish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bola fikrining ta'sirchanligi, haarakatchanligi, ehtiyotkorligi yoki bo'lmasam faoliyatsizligi, o'sib borishi, uning ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantiriladigan sur'ati va sifatiga bog'liq bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda ham fikrlashning mustaqilligi darajasini nazorat qilib borish, uni farqlash hamda rivojlantirib borish aynan tarbiyachining vazifasi hisoblanadi. Buning uchun tarbiyachi shaxsidan o'ta ziyraklik, har bir bola shaxsi, uning intellektual imkoniyatlari, intilish va qiziqishlarini chuqur o'rganishni talab etadi. Har bir bola turli yosh guruhida turlicha qiziqishlarga, fikrlash xilma-xilligiga ega bo'ladi. Ularning faoliyatlari ham o'zgarib borib, uni o'rab turgan borliqqa nisbatan ham turlicha munosabat bildiradi boshlaydi. Maktabgacha ta'lim badiiy matnlar bilan tanishish ta'limiy faoliyatlarida: topshiriqlarning to'g'ri qo'yilmasligi; bolalarni muntazam ravishda erkin faoliyatga jarayonlariga undamaslik; bolada mustaqil faoliyatning rivojlanib borish darajasiga e'tibor bermaslik bola fikriy mustaqilligining rivojlanishiga to'siq bo'ladigan asosiy sabablardan biridir. Tarbiyalanuvchilardagi tanqidiy tafakkur va erkin mulohazaning yetarli darajada taraqqiy etmaganligi estetik did hamda madaniy saviyaning pastligi badiiy asar mazmunini yuzaki baholashga olib keladi. O'rganilayotgan asar to'g'risida chuqur fikr

yuritmasdan turib unga baho berishga shoshilish kerak emas, aks holda amaliy turmush bilan badiiy asar o'rtasidagi farqni anglamay qolishga to'g'ri keladi. Bugungi maktabgacha adabiy ta'lim bolaning u yoki bu badiiy asarni eshitib, tushunishining o'zini yetarli deb hisoblamaydi. Bola asarga har xil mustaqil yondashishga yo'naltirilishi kerak.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'lum bir yangi ma'lumotlarni, bilimlarni tez va oson egallab olishlari uchun ularga ta'limiy faoliyatlar tarbiyachilar tomonidan to'g'ri va aynan, bolalarning yosh, individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Shundagina bolaning aqliy faolligi va hayotiy hodisalarga bo'lgan mustaqil fikriy faolligi oshadi. Pedagogika, psixologiya fani aqliy tarbiya vazifalarini samarali hal etish birinchi navbatda bolaning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni, ikkinchi tomondan bola organizmining charchashiga sabab bo'ladigan ortiqcha zo'rayish bo'lmasligi kerak, degan fikrni ilgari suradi. To'g'ri tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli pedagoglarning vazifasi muayyan maqsadni ko'zlab, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoitni yaratish bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali so'ng mashg'ulotlar, bilim berish orqali amalga oshiriladi.<sup>3</sup>

Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashini shakllantirishda narsa buyumlar bilan tanishtirishga doir harakatlar juda muhim. Amaliy harakatlar asosida bola obyektlarni qiyoslash, tahlil etish, taqqoslash, guruhlashga o'rganadi. Ana shu tarzda bolada fikrlashning ilk ko'rgazmali-amaliy shakli tarkib topadi. Asta-sekin bolada nafaqat bevosita narsa-buyumlarni idrok etish orqali, balki timsollar asosida fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Ya'ni ko'rgazmali-obrazli fikrlash shakllanadi.<sup>4</sup> Haqiqatdan ham maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashga, kreativ yondoshishda amaliy harakatlarning o'rni beqiyosdir. Bolada amaliy ko'nikmalarning shakllanib, ortib borishi atrofdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarini chuqur anglab boradi.

Maktabgacha yosh davrining aynan ikkinchi yarmiga kelib bolada mantiqiy- nutqiy fikrlash rivojlana boshlaydi. Fikrlashning mazkur shaklida narsa-hodisalar o'rtasidagi mavjud bo'lgan aloqalarni yo'lga qo'yishda namoyon bo'ladi. Fikrlash jarayoning barcha shakllarida asosiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirish bosqichma- bosqich amalga oshadi. Bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish kattalar tomonidan hal etilishi lozim bo'lgan vazifa hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirishga o'rgatish hamda o'zining shaxsiy fikrini erkin bildirishga undash lozim. Bolalarga vazifa sifatida ularning bilish faolligini rag'batlantiruvchi, tafakkur yuritish doirasini, taqqoslashni talab etuvchi vazifalarni qo'yish zarurdir.

### **References:**

1. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Qayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika". – T.: Tafakkur, 2019. Darslik.
2. Q. Husanboyeva, M. Hazratqulov, G. Berdialiyeva. Maktabgacha ta'limda badiiy matn bilan ishlash metodikasi. Darslik. Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.
3. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. P.Yusupova. T., "O'qituvchi" 1993. 144-b.
4. D.R.Babayeva Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent-2020.
5. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma (3-nashr). T.: «ILM ZIYO», 2012. – 135- b.

6. “Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik” Metodik qoʻllanma (birichi nashr) Toshkent : 2020-y. 14-b.
7. Turolova N. O ‘zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o ‘ziga xos xususiyatlari. – 2023.
8. Буранова Л. В. и др. Зарубежный опыт ипотечного жилищного кредитования //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 19. – С. 437-345.

INNOVATIVE  
ACADEMY